

## MAKTAB O'QUVCHISI NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA EHTIYOJ

**Jurayeva Sarvinoz O'tkir qizi**

BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabda nutq uslublari haqidagi bilimlar, asosan, 10-11-sinflarda o'tilishi, maktabda nutq uslublarini o'qitish o'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga borligi aytib o'tilgan O'quvchilarda nutq mantiqiy bo'lishi, nutq aniq bo'lishi, nutq til vositalariga boy bo'lishi, nutq tushunarli bo'lishi, nutq to'g'ri bo'lishi kerakligi aytilgan.*

***Kalit so'zlar:** nutq uslublari, o'quvchi nutqi, nutq o'stirish talablari, mazmudor nutq, mantiqiy nutq, so'zlashuv, ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy uslub.*

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O'quvchilar nutqi mazmudor bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi. Nutq o'stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirilmasligi va o'rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyliги narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o'ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til

vositalaridan (soʻz, soʻz birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga oʻrgansin.

4. Nutq til vositalariga boy boʻlsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun oʻquvchi nutqi til vositalariga boy boʻlishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish koʻnikmasiga ega boʻlishi zarur. Albatta, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qoʻyib boʻlmaydi, ammo oʻqituvchi oʻquv ishlarida ularning soʻz boyligini oshirib borishni har vaqt koʻzda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli boʻlsin. Ogʻzaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni oʻquvchiga tushunarli boʻlishi zarur. Soʻzlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki oʻquvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali boʻlsin. Agar nutq ifodali, yaʼni jonli, chiroyli, ishontiradigan boʻlsa, eshituvchiga yoki oʻquvchiga taʼsir etadi. Ogʻzaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali taʼsir etsa, ogʻzaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va oʻquvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan soʻzlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida taʼsir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali boʻlishi har qanday shevaga xos va ortiqcha soʻzlardan sof boʻlishini taqozo etadi.

7. Nutq toʻgʻri boʻlsin. Maktab uchun nutqning adabiy til meʼyorlariga mos va toʻgʻri boʻlishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, ogʻzaki nutq esa orfoepik jihatdan toʻgʻri tuzilishi talab etiladi. Nutqning toʻgʻri boʻlishi uchun soʻz tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Yrqrorida sanab oʻtilgan talablar oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi boʻlibgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni oʻstirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli oʻstirish mumkin. Shuning uchun oʻquvchilar nutqini oʻstirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yoʻnaltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, muvaffaqiyatli oʻsadi. Tushuncha soʻzlar yoki soʻz birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi boʻlgan soʻzda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan soʻz (soʻz birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega boʻladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bogʻlangandir. Nutq boʻlmasa, tafakkur

ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi»<sup>14</sup>. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchi fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchining barcha o‘quv predmetlaridan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o‘quvchi o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o‘sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma’naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, ma’rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta’lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy istiqlol g‘oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti sanaladi. Ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-aloqa tizimlari, vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasi qo‘yilmoqda. O‘zbekistonning kelajagi va ravnaqi ko‘p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma’naviy yetukligiga bog‘liq. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, uzluksiz ta’lim borasidagi yo‘riqnomalar har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

<sup>14</sup> Иванов П. И. Умумий психология. –Т.: Ўқитувчи, 1967. –306 - б.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Неъматов Х., Гуломов А. Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. – Т.: РТМ, 1992. – 30 б.
2. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent, 2016. – 98 b.
3. Розиков О., Махмудов М., Адизов Б. Она тили дидактикаси. – Т.:Fan, 2006. – 337 б.
4. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1980.
5. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –162 б.
6. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985. –Б. 88.
7. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Т.: Фан, 1982.– Б.18.
8. Қодиров П.Тил ва эл. –Тошкент: Маънавият, 2010. –Б.14.